MINTAQA IQTISODIYOTIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIINI TASHKIL ETISH TIZIMI

Kazakov Elnur Il’shodovich
Urganch Ranch-texnologiya universiteti “Iqtisodiyot” mutaxassisligi 2501-guruhi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20780969

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlariini tashkil etish zaruriyati, o‘ziga xos xususiyatlari va ularni amalga oshirish tizimi yoritilgan. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlariini tashkil etish tizimi tadqiqiga oid xulosa keltirilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается необходимость организации хлопчатобумажно-текстильных кластеров в региональной экономике, их специфические особенности и система их создания. Также дается заключение по результатам исследования системы организации хлопчатобумажно-текстильных кластеров.*

Abstract*. This article discusses the need for the organization of cotton-textile clusters in the regional economy, their specific features and the system for their implementation. Also, a conclusion is given on the study of the system for organizing cotton-textile clusters.*

Kalit so‘zlar. *Mintaqa, klaster, paxta-to‘qimachilik klasteri, to‘qimachilik, sanoat, mexanizm, tizim.*

Ключевые слова*. Регион, кластер, хлопчатобумажно-текстильный кластер, текстиль, промышленность, механизм, система.*

Key words*. Region, cluster, cotton-textile cluster, textile, industry, mechanism, system.*

Kirish. Ma’lumki, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi sohasi tarkibida paxtachilik sohasi muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda paxta xomashyosini yetishtirish bilan birgalikda, tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni birlashtiruvchi paxta-to‘qimachilik klasterlari keng joriy etilmoqda. Klaster tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qo‘shimcha qiymat yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, paxta-to‘qimachilik klasteri paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, ip-kalava, gazlama va tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining yagona tizim asosida tashkil etilgan shakli bo‘lib hisoblanadi. Mazkur yondashuv mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, mahalliy resurslardan samarali foydalanishga asoslanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqa iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish va uning tizimini tadqiq qilish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ba’zi bir tadqiqotlarda klaster tushunchasi va mohiyati, texnologiyasi va ularning metodikasi, ishlab chiqarish jarayonida samaradorlik jihatlari, qishloq xo‘jaligida yangi imkoniyat va samaradorlik omili ilmiy-tajribaviy jihatlari ko‘rsatilgan [1]. Unga asosan, klaster qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida paxtachilik sohasini taraqqiy qildirishga imkon beradi. Boshqa xil tadqiqotlarda esa O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan [2]. Ya’ni, unga asosan, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bevosita ushbu sohadagi klaster faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim tadqiqotlarda esa to‘qimachilik sanoatining raqamli transformatsiyasi va klasterlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish masalalari yoritilgan [3]. Jumladan, bu klasterlar to‘qimachilik sanoatini raqamlashtirishni ta’minlaydi.

Ulardan tashqari, yana boshqa tadqiqotlarga asosan, paxta-to‘qimachilik klasterlarida mahalliy darajada dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik yo‘nalishlarida konsalting xizmatlari ko‘rsatish va tajribalar benchmarketingini yo‘lga qo‘yish asoslangan. Aniqroq qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishining mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda klasterlar samaradorligini oshirish maqsadida ilg‘or bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etishni ko‘zda tutuvchi agrokonsalting xizmatlarini ko‘rsatish masalalari yoritilgan [4]. Boshqa yana bir tadqiqotlarga binoan, O‘zbekistonda yetishtiriladigan paxta xom ashyosining qo‘shimcha qiymatini oshirish uchun paxta-to‘qimachilik klasterlarini yaratish zarurligi asoslangan. Bu borada to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishni rivojlantirishda klasterlardan foydalanish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajriba ko‘rib chiqilgan hamda klasterlarni yaratishga ta’sir qiluvchi mavjud muammolar va omillar o‘rganilgan [5].

Tahlil va natijalar. Paxta-to‘qimachilik klasterining asosiy maqsadi paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslanadi. An’anaviy tizimda paxta yetishtiruvchi xo‘jaliklar, paxta tozalash korxonalari va to‘qimachilik sanoati subyektlari alohida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, klaster tizimida ular yagona iqtisodiy mexanizm sifatida harakat qiladi. Ushbu klasterlarning ahamiyati paxta xomashyosini qayta ishlash darajasini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, eksport hajmini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq va sanoat o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Mintaqa iqtisodiyotida klasterlar qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarni shakllantirib, hududning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu borada paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish quyidagi o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1) Xom ashyo bazasini shakllantirish. Klaster faoliyatining birinchi bosqichi paxta yetishtirish bo‘lib hisoblanadi. Bu bosqichda fermer xo‘jaliklari va klaster korxonasi o‘rtasida shartnomaviy munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi. Bu borada klaster fermerlarni yuqori sifatli urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i-moylash materiallari va agrotexnik xizmatlar bilan ta’minlaydi. Natijada, paxta hosildorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi va resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi.

2) Paxtani qayta ishlash jarayoni. Yig‘ib olingan paxta maxsus paxta tozalash korxonalarida qayta ishlanadi. Ushbu jarayonda tola, chigit va boshqa mahsulotlar ajratib olinadi. Klaster tizimida paxta tozalash korxonalari to‘qimachilik sanoati bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, xomashyo uzluksiz yetkazib beriladi. Bu esa transport va logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

3) To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish. Paxta tolasi keyingi bosqichda ip-kalava, mato va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yo‘naltiriladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Shu orqali klaster tarkibidagi to‘qimachilik korxonalari mahsulotlarni tayyor holga keltirib, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib beradi. Bu jarayon yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishga xizmat qiladi.

4) Marketing va eksport faoliyati. Klaster tizimining muhim qismi mahsulotlarni sotish va tashqi bozorlarga chiqarish bo‘lib hisoblanadi. Korxonalar xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish, brend yaratish va marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali eksport salohiyatini oshiradi. Bu bo‘yicha eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakat valyuta tushumlarining ko‘payishiga va tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shular bilan birgalikda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining tashkil etilishi quyidashi yo‘nalishlarda mintaqalar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- klaster tarkibida paxtachilik, qayta ishlash, transport, xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida ko‘pgina ish o‘rinlari yaratiladi;

- mintaqada yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilib, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi ta’minlanadi;

- korxonalar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hudud moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi;

- klasterlar oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib, yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etadi.

Kelgusida paxta-to‘qimachilik klasterlari esa mamlakatning eksport salohiyatini yanada oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Shularga asosan, mintaqa iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlariini tashkil etish tizimi quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqa iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlariini tashkil etish tizimi

Bosqich	Asosiy faoliyat yo‘nalishi	Ishtirokchilar
Resurslarni aniqlash	Yer, suv, mehnat va infratuzilma imkoniyatlarini baholash	Mahalliy hokimiyat, fermerlar va mutaxassislar
Paxta yetishtirish	Zamonaviy agrotexnologiyalar asosida paxta ekish va parvarishlash	Fermer xo‘jaliklari va agronomlar
Xom ashyoni yig‘ish va qayta ishlash	Paxtani terish, saqlash va dastlabki qayta ishlash	Klaster korxonalari va logistika xizmatlari
To‘qimachilik ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish	Kalava yigirish, mato to‘qish, bo‘yash va pardozlash	To‘qimachilik korxonalari
Tayyor mahsulot ishlab chiqarish	Kiyim-kechak va boshqa tekstil mahsulotlarini tayyorlash	Tikuv-trikotaj korxonalari
Marketing va eksportni amalga oshirish	Ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarni sotish	Savdo tashkilotlari va eksportyorlar
Innovatsiya va rivojlantirish	Yangi texnologiyalar va investitsiyalarni joriy etish	Investorlar va ilmiy muassasalar

Ushbu 1-jadvalga asosa, paxta-to‘qimachilik klasteri tizimi fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari, tikuv-trikotaj fabrikalari, logistika va savdo tashkilotlari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlaydi. Mazkur tizimning asosiy afzalligi xom paxtani faqat sotish bilan cheklanib qolmasdan, ya’ni uni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatini berish bilan namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Paxta-to‘qimachilik klasterlari mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tizim paxta yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni birlashtirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Klasterlar aholi bandligini ta’minlash, eksport hajmini ko‘paytirish, sanoatni modernizatsiya qilish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kelgusida paxta-to‘qimachilik klasterlarini yanada takomillashtirish va ularning faoliyatini qo‘llab-

quvvatlash mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Natijada, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, eksport salohiyati oshadi, mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi kuchayadi hamda mahalliy byudjetga tushumlar ko‘payadi. Hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali klasterlarning iqtisodiy samaradorligi yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xalimbetov F.B. Paxtachilik klasteri - qishloq xo‘jaligida yangi imkoniyat va samaradorlik omili. // Academic Research in Educational Sciences, Volume3, Issue12, 2022. - 294 b.
2. Muxiddinova K.S., Muxiddinov Dj.M. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtosodiy mexanizmini takomillashtirish. // Международный журнал теории новейших научных исследований, 2024, 2(10). - 137-147 b. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.ijrs.59811
3. Tojiyev S.M. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish yo‘llari. // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali, 2025-yil, mart, №3-son. - 22 b. https://zenodo.org/records/15048778
4. Kudratova I. Paxta-to‘qimachilik klasterida agrokonsalting xizmatlarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(3), 2024. - 75-81 b. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp75-81
5. Khalikov T.L. Problems of creating cotton-textile clusters in the Republic of Uzbekistan and ways to solve them. // American Journal of Management Practice, Vol.2, No.1 (Jan., 2025). - p. 49.